

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari


08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Ф.Р. РАЕКАНОВА
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	15
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	21
Адилов Шерзот Шамильевич	
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	30
Farmonov Dilshod Po'latovich	
SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O'ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR	36
Durdona Davletova	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI	56
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI.....	61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	68
Safarov Shohboz Vahob o'g'li	
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS	72
Azimov Shavkat Shuxratovich	
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH	78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASH.....	85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN	90
Turaeva Dilnavoz	
YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARI.....	96
Dilshod Karimboyev	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА	102
Юсупова Мохинур Фарход кизи	
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА.....	110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	



ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ	121
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.....	128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo	
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	133
Temirova Shalola Erkinovna	
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li	
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI	142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich	
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION	150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich	
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....	156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI	161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH	168
Jafarov Sobir Talab o'g'li	
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH	173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА.....	190
Умаров Улугбек Унарович	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI	197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI.....	208
Musurmonov Sherzod Yusupovich	
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS	217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li	
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI	230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH	235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich	



ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH)	245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	253
Obilov Mirkomil Rashidovich	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MODELLARI: QIYOSIY TAHLIL	260
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
DAVLAT SUBSIDİYALARINI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	266
Hasanov To'liqin Axmatovich	
СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКСИТОННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ САМОАГРЕГАЦИИ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА	272
Г.К. Касимова	
QAZIB OLINAYOTGAN ENG YIRIK VA RUDA KONLARINING GEODINAMIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH.....	277
Qo'shshayev Uchqun Quvvatovich	
KO'P O'LCHAMLI BESSEL OPERATORLARIGA ASOSLANGAN LAPLAS-BESSEL DIFFERENSIAL OPERATORINING FORMAL O'Z-O'ZIGA QO'SHMALIGI VA BIR JINSLILIK XOSSALARI HAQIDA.....	282
Jo'rayev Shaxzod Shuhratjon o'g'li	
NUQTAVIY BOG'LANISHLAR VA BIRIKTIRILGAN MASSALARGA EGA VISKOELASTIK PLASTINA-QOBIQ TIZIMLARINING ERKIN TEBRANISHLARINI VARIATSION-SPEKTRAL TAHLIL QILISH.....	287
Homidov Farhod Faxridinovich	
ELEKTROTEXNIK TIZIMLARINING METROLOGIK TA'MINOTINI RAQAMLI MONITORING VA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	297
Sanayeva Gulsun Baxtiyorovna	
MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISHDA CAD VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	302
Rustamov Erkin Tohirovich	
ENERGETIKA TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	307
Xafizov Islom Ikramovich	
QANDLI DIABET KASALLIGINING POPULYATSIYADA TARQALISH ZANJIRI VA DINAMIK KO'RSATKICHLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI	314
G'aniyev Qodirjon Qahramon o'g'li	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSİYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	319
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
MEVA SHARBATLARINI INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA (IR/FTIR) USULIDA TAHLIL QILISH VA XEMOMETRIK MODELLASH ORQALI SIFAT KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	326
Ibragimov Ulug'bek Muradilloevich	
TO'LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI QOVUSHQOQ-ELASTIK PLASTINKALARDA TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK JARAYONLARNING SONLI TAHLILI	333
Narzulloyev Muxammad Azamatovich	
СВЕРХБЫСТРОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАМАГНИЧЕННОСТЬЮ В КОМБИНИРОВАННЫХ СТАТИЧЕСКОМ И ВЫСОКОЧАСТОТНОМ МАГНИТНЫХ ПОЛЯХ	339
Н.Н.Миржонова	



SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	345
Aslonov Qodir Ziyodullayevich	
ОБОСНОВАНИЕ ГОРНОТЕХНИЧЕСКОГО ЭТАПА РЕКУЛЬТИВАЦИИ РУДНЫХ КАРЬЕРОВ	350
Турсунов Баходир Джунайдуллаевич	
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	356
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
LOGISTIKA XARAJATLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI... ..	365
Rashidov Uchqun Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ORGANIK MAHSULOTLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BOZORGA CHIQISH MASALALARI TAHLILI.....	369
Berdiyev Samariddin Raxmatovich	
FACTORS DETERMINING THE LEVEL OF ESG MANAGEMENT IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN	374
Abdullaeva Sanemkhan Isayevna	
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA MAQSADLASHI REJIMI: SAMARADORLIGI, MUAMMOLARI VA 2026-YILGA YANGILANGAN PROGNOZ TAHLILI.....	381
Inobatov Abror Boshlarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI	388
Humoyun Qodirov	
TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	394
Zuparova Nargiza, Yusupov Saidvali	
OILAVIY BIZNESDA STRATEGIK NAZORAT VA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	400
Mirdjalilova Dildora, Mumindjanov Ulug'bek	
MA'LUMOTLAR TAHLILI ASOSIDA KORXONALARDA XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	406
Masharipov Jasur Rozmedovich	
XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLANILADIGAN IQTISODIY VOSITALAR	411
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	
AUDITORLIK TASHKILOTLARINING MOLİYAVIY NATIJALARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH	417
Murodova Dilfuza Jalolovna	
PAXTA XOMASHYOSINING NAMLIK MIQDORINING DASTLABKI ISHLOV BERISH JARAYONI SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	423
Chorshanbiyeva Mehriniso Rustam qizi	
MOLİYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING ILMIY-AMALIY USLUBIYOTI.....	428
Bekberganova Farangiz Birodar qizi	
BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODIDA NEFTNI ATMOSFERALI HAYDASH QURILMASIDA TEXNOLOGIK MUHIT AGRESSIVLIGINI, KIMYOVIY REAKSIYALAR VA KORROZIYA MEXANIZMLARINI TADQIQ ETISH.....	434
Murodov Malikjon Negmurodovich	
JAHON OLIY TA'LIM TIZIMIDA MOLİYAVIY BOSHQARUVNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	438
M.M. Tashhodjaev	
INNOVATSION IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	444
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	



ENERGIYA MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ENERGIYA ISTE'MOLI XAVFIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	450
Egamberdiyeva Mardona Komiljon qizi	
SAVDO XIZMATLARIDA SIFATLI BANDLIKNI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	454
Kuchaboyev Ruslan Tellayevich	
O'QUV AUDITORIYALARIDA KOMPYUTERLI KO'RISH VA CHUQUR O'RGANISH ALGORITMLARI YORDAMIDA TALABALAR ISHTIROKI VA XULQ-ATVORINI AVTOMATLASHTIRILGAN TAHLIL QILISH.....	458
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi	
O'QUV AUDITORIYALARIDA KOMPYUTERLI KO'RISH VA CHUQUR O'RGANISH ALGORITMLARI YORDAMIDA TALABALAR ISHTIROKI VA XULQ-ATVORINI AVTOMATLASHTIRILGAN TAHLIL QILISH.....	464
U. Z. Narmuradov	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA KORPORATIV SHAFFOFLIKNI BAHOLASH VA OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	472
Maxkambayeva Feruza Maxamadjanovna	
ТРАНСАКЦИОННЫЕ ИЗДЕЖКИ ЭКСПОРТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ КАК ФАКТОР ИХ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ.....	489
Нишанова Зулхаё Бахромжон кизи	
QUYOSH KONSENTRATORI ASOSIDA KO'P FUNKSIYALI ENERGIYA SAMARADOR QURITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	497
Mardonov Nodirbek Aziz o'g'li	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ АУТСОРСИНГА ИТ-УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И СНИЖЕНИЯ УРОВНЯ БЕДНОСТИ	502
Назаров Зиёвуддин Шарофиддинович	
QURILISH SANOATI KORXONALARI BARQAROR RIVOJLANISHINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLARI	507
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI VA EKSPORT FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH SAMARADORLIGI.....	513
Mirzayeva Xulkar Abduladjon qizi	
QUDUQ CHUQURLIGINI IKKI CHASTOTALI AKUSTIK O'LCHASH ANIQLIGINI BAHOLASH.....	519
Axmedjanov Ildar Ravilevich	
PAXTA LINTINI TASHUVCHI VA TOZALOVCHI VINTLI KONVEYERLARNING KINEMATİK TAHLILI	524
Yuldashev Kozimjon, Xayitboyev Qudratbek	

PAXTA LINTINI TASHUVCHI VA TOZALOVCHI VINTLI KONVEYERLARNING KINEMATIK TAHLILI

Yuldashev Kozimjon Komiljonovich

Andijon davlat texnika instituti

“Umumtexnika fanlari” kafedrası dotsenti, texnika fanlari doktori (DSc)

Xayitboyev Qudratbek Anvarbek o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Umumtexnika fanlari” kafedrası assistenti

Annotatsiya: Maqolada paxta lintini tashish va bir vaqtning o'zida mexanik tozalashga mo'ljallangan vintli konveyerlarning kinematik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Vintning aylanish harakati natijasida paxta lintining bo'ylama siljishi, vint qadami, diametri, aylanish chastotasi, to'ldirish koeffitsiyenti va sirpanishning transport jarayoniga ta'siri matematik jihatdan asoslangan. Vintli ish organining burchak va chiziqli tezliklari, lintning nazariy bo'ylama tezligi, konveyer unumdorligi hamda lintning tozalash zonasida bo'lish vaqti uchun asosiy tenglamalar keltirilgan. Kinematik parametrlarni transport unumdorligi va tozalash samaradorligini birgalikda hisobga olgan holda tanlash zarurligi ko'rsatilgan. Nazariy tahlil natijalari vintning geometrik va kinematik parametrlarining o'zaro bog'liqligi paxta lintining konveyer bo'ylab harakatlanish tezligi hamda tozalash jarayonining davomiyligini belgilashini ko'rsatadi. Olingan ilmiy bog'lanishlardan vintli konveyerlarning konstruktiv parametrlarini takomillashtirish, maqbul ish rejimlarini aniqlash va paxta lintini tashish-tozalash jarayonining texnologik samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: paxta linti, vintli konveyer, shnek, kinematik tahlil, aylanish chastotasi, vint qadami, transport tezligi, tozalash samaradorligi, unumdorlik, to'ldirish koeffitsiyenti.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ кинематических свойств шнековых конвейеров, предназначенных для транспортировки хлопкового волокна и одновременной механической очистки. Математически обоснованы продольное перемещение хлопкового волокна в результате вращательного движения шнека, шаг шнека, диаметр, частота вращения, коэффициент заполнения и влияние проскальзывания на процесс транспортировки. Представлены основные уравнения для угловой и линейной скоростей рабочего тела шнека, теоретической продольной скорости волокна, КПД конвейера и времени пребывания волокна в зоне очистки. Показана необходимость выбора кинематических параметров с учетом эффективности транспортировки и эффективности очистки одновременно. Результаты теоретического анализа показывают, что взаимосвязь между геометрическими и кинематическими параметрами шнека определяет скорость движения хлопкового волокна по конвейеру и продолжительность процесса очистки. Полученные научные зависимости могут быть использованы для улучшения параметров конструкции шнековых конвейеров, определения оптимальных режимов работы и повышения технологической эффективности транспортировки и очистки хлопкового волокна.

Ключевые слова: хлопковое волокно, винтовой конвейер, шнек, кинематический анализ, частота вращения, шаг шнека, скорость транспортировки, эффективность очистки, производительность, коэффициент заполнения.

Abstract: The article presents a scientific and theoretical analysis of the kinematic characteristics of screw conveyors designed for the simultaneous transport and mechanical cleaning of cotton linters. The longitudinal movement of the cotton linter resulting from the screw's rotation, as well as the impact of screw pitch, diameter, rotational speed, filling coefficient, and slippage on the transport process, are mathematically substantiated. Key equations are provided for the angular and linear velocities of the screw working element, the theoretical longitudinal velocity of the linter, conveyor productivity, and the residence time of the linter in the cleaning zone. The necessity of selecting kinematic parameters by simultaneously considering transport productivity and cleaning efficiency is demonstrated. The results of the theoretical analysis indicate that the interrelationship between the screw's geometric and kinematic parameters determines the speed at which cotton linters move along the conveyor and the duration of the cleaning process. The established scientific relationships can be utilized to optimize the design parameters of screw conveyors, determine optimal operating modes, and enhance the technological efficiency of the cotton linter transport and cleaning process.

Keywords: cotton linter, screw conveyor, auger, kinematic analysis, rotational speed, screw pitch, conveying speed, cleaning efficiency, productivity, filling coefficient.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4633-sonli¹ qarorining 1-ilovasidagi "Paxtachilikda bozor tamoyillari joriy etilishi munosabati bilan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va qayta ishlovchi korxonalarning o'zaro munosabatlarini tartibga solish bo'yicha amalga oshiriladigan" chora-tadbir dasturining 6-bandida "Paxtasanoat hududiy aksiyadorlik" birlashmalarining paxta tozalash zavodlaridagi aksiya (ulush) paketlari sotilishiga qadar, ushbu zavodlar tomonidan paxta xom ashyosini qabul qilish, saqlash va qayta ishlash xizmati (tegirmon usulida) ko'rsatilishini ta'minlash belgilangan.

Qaror paxta xomashyosini yetishtirish, xarid qilish va qayta ishlash jarayonlarida bozor mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu sharoitda paxta tozalash korxonalari xomashyoni qabul qilish, saqlash, quritish, tozalash va undan sifatli mahsulot olish jarayonlarini iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik asosida tashkil etishi muhim bo'ladi. Qarorda paxtachilikda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuv belgilangan. Paxta tozalash zavodlari uchun bu, avvalo, zamonaviy quritish-tozalash agregatlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, energiya tejamkor texnologiyalar va xomashyo sifatini nazorat qilish vositalaridan foydalanishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab xorijiy davlatlarda yetakchi olimlar tomonidan vintli konveyerlarda turli xildagi mahsulotlarni tashishning nazariy-fundamental, amaliy masalalari va metodologik asoslarini yaratishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, S. N. Baybara vertikal vintli konveyer ustida olib borilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijasida to'kiluvchan materiallarni tashish vaqtida vintning maksimal ish unumdorligi spiral balandligi va uning burchagiga bog'liqligi aniqlandi [2]. Vintli konveyerning ish unumdorligini yetarli darajada ta'minlash uchun yuklovchi voronkaning yon devorlari spiralga nisbatan turli burchak bilan yasalgan bo'lishi kerakligini isbotlagan. T. V. Ovchinikova vintli konveyerlarning ish unumdorligi, quvvati va energiya intensivligining analitik hamda tajribaviy bog'liqliklari bilan yengil iflosliklardan tozalash, tashiladigan materialning ishqalanish koeffitsiyenti, vint pichoqlarining soni va joylashish burchagiga bog'liqligini asoslagan [3]. R. I. Cherkasov vintli konveyerlarning ish unumdorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Tajriba sinovi paytida spiralning qiyalik burchaklari va spiralga qo'shimcha pichoqlarni o'rnatish vintli konveyerlarning ish natijadorligini isbotladi [4]. N. Jigar, P. Sumant, S. Snehal lar vintli konveyerlarni modifikatsiyalashtirishda vint valini olib tashlash va vintli konveyerni valsiz loyihalash uchun umumlashtirilgan metodikani qo'llash orqali amalga oshiriladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Paxta tozalash sanoatida lintni texnologik operatsiyalar orasida uzatish va uni begona aralashmalardan ajratish jarayonlari mahsulot sifati hamda uskunaning umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tolali materiallar yengil, g'ovak, elastik va o'zaro ilashuvchan bo'lgani sababli ularning mexanik tashish jarayoni oddiy sochiluvchan materiallar transportidan farq qiladi. Vintli konveyerning ish unumdorligi vintning diametri, vintning maydoni, vintning aylanma tezligi va vintning ko'ndalang kesimi maydonini yuklash samaradorligiga bog'liq.

Vintli konveyerning quvvat sarfi asosan vintli konveyerning uzunligi, ish unumdorligi, umumiy qarshilik koeffitsiyenti va bu qarshilik tashilayotgan mahsulot turi, abrazivligi, donalarning o'lchami, ichki qarshiligi hamda ularning ko'pchiligi qobiqning to'ldirish darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Vintli konveyerda harakatlanadigan mahsulot zarrachalari oqimi, ularning buralish burchagi va ishqalanish koeffitsiyentlari uning ish unumdorligiga bog'liqligini asoslab bergan (1-rasm) [6].

1 <https://lex.uz/docs/-4756994>




1-rasm. Vintli konveyerning umumiy tuzilishi²

Vintli konveyer konstruksiyasining soddaligi, uzluksiz ishlashi va tashish jarayonini mexanik tozalash bilan birlashtirish imkoniyati uni paxta lintiga oid texnologik tizimlar uchun qiziqarli ishchi organlardan biriga aylantiradi. Bunday qurilmaning samarali ishlashi uchun vintning geometriyasi, aylanish chastotasi va lintning ishchi sirt bilan o'zaro ta'sirini kinematik jihatdan asoslash zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vintli konveyer elektr dvigatel, uzatma yoki reduktor, yetaklovchi val, vintli ish organi, korpus, tayanchlar, lintni yuklash va chiqarish qismlari hamda tozalash konstruksiyasida to'rtli yoki perforatsiyalangan ishchi sirlardan tashkil topadi. Kinematik zanjir elektr dvigatelning aylanma harakatini vint valiga, vint valining harakatini esa lint massasining ilgari lanma siljishiga aylantirishga asoslanadi (2-rasm).




2-rasm. Paxta lintini tashuvchi va tozalovchi vintli konveyerning prinsipial kinematik sxemasi³

Vintli konveyerning asosiy geometrik parametrlari D - tashqi diametr, d - val diametri, P - vint qadami va L - konveyer uzunligidir. Kinematik parametrlar esa n - aylanish chastotasi, ω - burchak tezligi va v - lintning o'rtacha bo'ylama tezligidan iborat (3-rasm).

2 Manba: Muallif ishlanmasi.

3 Manba: Muallif ishlanmasi.

3-rasm. Vintning asosiy geometrik parametrlari⁴

Vintning aylanish chastotasi n ayl/min birlikda berilganda uning burchak tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega = \frac{2\pi n}{60} \quad (1)$$

Bu tenglama vintning bir sekunddagi aylanishlar sonini rad/s birlikdagi burchak tezligiga o'tkazadi. Aylanish chastotasi oshishi bilan vintning barcha nuqtalarining aylanish tezligi proporsional ravishda ortadi.

Vint o'qidan r masofadagi nuqtaning periferik, ya'ni tangensial tezligi:

$$v_{\tau} = \omega r \quad (2)$$

Vintning tashqi radiusida $r = D/2$ bo'lganda maksimal periferik tezlik:

$$v_{\tau \max} = \frac{\pi D n}{60} \quad (3)$$

Mazkur parametr vintning lint massasiga mexanik ta'sir intensivligini baholashda muhim hisoblanadi.

Vintning o'rtacha diametri:

$$D_{o'rt} = \frac{D+d}{2} \quad (4)$$

Vint chizig'ining ko'tarilish burchagi:

$$\tan \varphi = \frac{P}{\pi D_{o'rt}} \quad (5)$$

$$\varphi = \arctan \frac{P}{\pi D_{o'rt}} \quad (6)$$

Vint qadami P ortishi bilan bir aylanishda lintni bo'ylama yo'nalishda siljitish imkoniyati ortadi. Biroq transport tezligining ortishi lintning tozalash zonasida bo'lish vaqtini kamaytirishi mumkin.

Ideal holatda, ya'ni lint vint bilan to'liq ilashgan va sirpanish yo'q deb qabul qilinganda, vint bir marta aylanganda material P masofaga siljiydi. Shuning uchun nazariy bo'ylama tezlik:

$$v_0 = \frac{P n}{60} \quad (7)$$

Real sharoitda lintning vint sirtiga nisbatan sirpanishi, ishqalanish, elastik deformatsiya, to'ldirish darajasi va korpus bilan o'zaro ta'siri mavjud. Shu sababli amaliy transport tezligini:

$$v = \frac{\eta_v P n}{60} \quad (8)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin. Bu yerda η_v — transport samaradorligi yoki kinematik yo'qotishlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent bo'lib, odatda 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlar oralig'ida qaraladi.

Vint kesimi bo'yicha material joylashadigan nazariy maydon:

$$A = \frac{\pi(D^2 - d^2)}{4} \quad (9)$$

Bir aylanishda material bilan to'ldiriladigan nazariy hajm $P \cdot A$ ga teng. To'ldirish koeffitsiyenti φ va transport samaradorligi η_v hisobga olinganda hajmiy unumdorlik:

$$Q_v = \frac{\pi(D^2 - d^2) P n \varphi \eta_v}{4} \quad (10)$$

Massa bo'yicha unumdorlik lintning o'rtacha sochilma zichligi ρ orqali:

$$Q_{o'rt} = \rho Q_v \quad (11)$$

$$Q = \frac{\rho \pi(D^2 - d^2) P n \varphi \eta_v}{4} \quad (12)$$

Ushbu tenglamalar vint diametri, vint qadami, aylanish chastotasi va to'ldirish darajasining unumdorlikka ta'sirini dastlabki baholash imkonini beradi.

Lintning konveyerda yoki tozalash zonasida bo'lish vaqti L uzunlik va o'rtacha transport tezligi v orqali:

$$t = \frac{L}{v} \quad (13)$$

$v = \frac{\eta_v P n}{60}$ ni qo'ysak:

$$t = \frac{60L}{\eta_v P n} \quad (14)$$

Demak, boshqa shartlar o'zgarmagan holda aylanish chastotasi yoki vint qadami oshirilsa, lintning qurilmada bo'lish vaqti kamayadi. Shu bilan birga, yuqori aylanish tezligi mexanik ta'sir intensivligini oshirishi mumkin. Shuning uchun tashish va tozalash vazifalarini birlashtirgan qurilmada parametrlar kompleks ravishda tanlanishi kerak.

Lint vint bo'ylab harakatlanish vaqtida vint parragingining mexanik ta'siri va to'rtli yoki perforatsiyalangan sirt bilan o'zaro ta'sirlashadi. Kinematik nuqtai nazardan, tozalash zonasidagi asosiy jarayon lintning ilgarilanma va aylanishdan kelib chiqadigan nisbiy siljish harakatlarining birgalikda sodir bo'lishidir.

Aylanish chastotasi oshirilganda vint sirtining periferik tezligi ortadi. Bu lintning to'rtli sirt bilan o'zaro ta'sir chastotasi va intensivligiga ta'sir qiladi. Biroq lintning qurilmada bo'lish vaqti kamayishi sababli umumiy tozalash samaradorligi faqat bitta parametr bilan emas, balki n , P , D , to'ldirish darajasi va ishqalanish sharoitlarining kombinatsiyasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi formulalar dastlabki muhandislik-konstruktorlik hisoblari uchun ideal yoki o'rtacha rejimni ifodalaydi. Haqiqiy lint oqimi tolalarning o'zaro ilashishi, namlik, zichlikning o'zgarishi, begona aralashmalar miqdori, ishqalanish, vint va korpus orasidagi tirqish hamda to'rtli sirtning qarshiligi sababli murakkabroq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy tahlil natijasida vintning aylanish chastotasi n va qadami P lintning bo'ylama transport tezligini



belgilovchi asosiy kinematik omillar ekanligi aniqlandi. Ideal holatda $v_0 = Pn/60$ munosabati bajariladi. Real sharoitda esa sirpanish va boshqa yo'qotishlar η_v koeffitsiyenti orqali hisobga olinadi. Vint diametri D ortishi bilan bir tomondan material uchun mavjud kesim maydoni va unumdorlik oshadi, ikkinchi tomondan tashqi sirtning periferik tezligi $v_{Pmax} = \pi Dn/60$ ortadi. Shuning uchun katta diametr yuqori unumdorlikni ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, lintga mexanik ta'sirning ortishi alohida tekshirilishi lozim.

Lintning tozalash zonasida bo'lish vaqti $t = 60L/(\eta_v Pn)$ ifoda bilan bog'langan. Bu natija transport unumdorligi bilan tozalash davomiyligi o'rtasida texnologik muvozanat zarurligini ko'rsatadi.

Paxta lintini tashuvchi va tozalovchi vintli konveyerning kinematik tahlili uning asosiy ish rejimi vintning aylanma harakatini lintning ilgariylanma siljishiga aylantirishga asoslanganligini ko'rsatdi. Vintning burchak tezligi $\omega = 2\pi n/60$, periferik tezligi $v_{Pmax} = \pi Dn/60$ va lintning ideal bo'ylama tezligi $v_0 = Pn/60$ tenglamalari qurilmaning asosiy kinematik tavsiflarini beradi.

Vintli konveyer unumdorligi D , d , P , n , ϕ va η_v parametrlarining funksiyasi bo'lib, massa bo'yicha unumdorlik lintning sochilma zichligi bilan ham belgilanadi. Lintning tozalash zonasida bo'lish vaqti esa $t = 60L/(\eta_v Pn)$ munosabat bilan aniqlanadi.

Shu sababli paxta lintini tashish va tozalashni bir vaqtda amalga oshiruvchi vintli konveyerni loyihalashda faqat maksimal unumdorlikka emas, balki transport tezligi, tozalash davomiyligi, mexanik ta'sir intensivligi, lint sifati va energiya sarfi o'rtasidagi maqbul nisbatga asoslanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-4756994>
2. Байбара С.Н. Диссертация. "Обоснование параметров однозаходного вертикального шнекового конвеера с двухлопастной загрузкой". Шахты- 2008. - с. 22.
3. Овчинникова Т.В. Диссертация. "Обоснование параметров и режимов работы пневмовинтовой установки для транспортирования зерна устройством для удаления легких примесей". Саратов 2016. - с. 5
4. Черкасов Р.И. Диссертация. "Интенсификация процесса смешивания сыпучих кормов порсионным вертикальным шнековым смесителем" Ростов-наДону-2017. С. 25
5. Jigar N, Sumant P, Snehal S. "Productivity Improvement of Screw Conveyor by Modified Design" International Journal of Emerging Technology and Advanced Engineering Website: www.ijetae.com (ISSN 2250-2459, ISO 9001:2008 Certified Journal, Volume 3, Issue 1, January 2013). - rr. 68
6. Djuraev A., Yuldashev K. Dynamics of the Screw Conveyor for Transportation and Cleaning of Fiber Material. International Journal of Advanced Science and Technology, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100